



OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA KASBIY MALAKANI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING O'RNI VA AHAMIYATI HAMDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Mirzakulova N.I.

Buxoro davlat pedagogika instituti, 13.00.02 – ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, talabalar, kasbiy faoliyat, bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy yo'nalish, pedagogik amaliyot, takomillashtirish, yo'nalishlar, shakllanish, imkoniyatlari.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, студенты, профессиональная деятельность, знания, навыки и квалификация, профессиональное направление, педагогическая практика, совершенствование, направления, формирование, возможности.

Key words: higher education institutions, students, professional activity, knowledge, skills and qualifications, professional direction, pedagogical practice, improvement, directions, formation, opportunities.

Mamlakatimizda innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, ta'limning uzluksizligi va amaliy yo'nalganligini ta'minlash, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini kasbiy rivojlantirish, o'qitishni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish orqali takomillashtirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim islohotining asosiy vazifalaridan biri zamonaviy ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishda yoshlarni kasbiy faoliyatga o'rgatish, o'z istagi va xohishiga qarab kasb tanlash, butun hayoti davomida o'z kasbga sadoqatli bo'lish hislarini shakllantirishdan iboratdir.

Ta'lim tizimida xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq mutaxassis kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish, zamonaviy mutaxassis kadrlar bozori talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, yuksak kasbiy va intellektual, tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha innovatsion texnologiyalarni tatbiq eta

oladigan kadrlar tayyorlash, ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.

Oliy ta‘lim muassasasida bo‘lajak mutaxassislarning tashkiliy, konstruktivlash, rejalashtirish, kommunikativ tadqiq qilish kabi kasbiy va pedagogik mahoratni shakllantirishgina emas, balki ularning kasbiy xususiyati va mutaxassis shaxsiga qo‘ygan talabidan kelib chiqqan holda individual va insoniy fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirishga qaratilgandir.

Malakaviy amaliyotda innovatsion o‘quv-uslubiy materiallarni zamonaviy yondashuvlarga asoslanib, ishlab chiqish va amalga joriy etish muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek ularning yechimlarini topish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Biz tomondan “Texnologiya” (Mehnat ta‘limi) fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta‘lim jarayonining takomillashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqot va metodik ishlarni tahlil qildik.

O‘.Q.Tolipovning ishlarida esa oliy ta‘lim tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarida kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirish, pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llashning mezonlari va nazariy asoslari yaratilgan. Kasbiy ko‘nikma hamda malakalarini rivojlantirish samaradorligi va sifatini nazorat qilishning pedagogik texnologiyalari asosidagi ko‘rsatkich va mezonlari ishlab chiqilgan[1].

Sh.S.Sharipovning ishlarida esa bo‘lajak mehnat va kasb ta‘limi o‘qituvchilari ijodkorligini shakllantirishning ilmiy, pedagogik-psixologik, tashkiliy sharoitlari aniqlangan. Ijodkorlikka oid tushunchalar va uni amalga oshirish davrlari ishlab chiqilgan. Aqliy mehnat faolligi hamda ishlab chiqiladigan ijodkorlik samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi avtomatlashtirilgan o‘quv-axborot tizimlari hamda bilimlar bankini o‘z ichiga olgan yangi axborot texnologiyasi mazmunini ishlab chiqilgan[2].

S.Y.Axmadaliev tadqiqotlarida bo‘lajak mehnat ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashishining ilmiy-metodik asoslari hamda moslashuv jarayoniga ahamiyatli omillar haqida fikr yuritgan.

Oliy ta‘limda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga innovatsion yondashuv hamda malakaviy pedagogik amaliyotlarni o‘tkazish muammolari bo‘yicha M.Barakaev, A.Jalilov, Q.Jumaniyozov, B.Xo‘jaev, I.Rahmonovlarning “Malakaviy amaliyot” nomli uslubiy qo‘llanmasida oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan “Malakaviy amaliyot” mazmuni, tashkil qilish jarayoni, bu davrda talabalar va unda bevosita ishtirok etadigan pedagog xodimlar vazifalari to‘la yoritib berilgan hamda uning samaradorligini oshirish yo‘llari yoritilgan[3].



Sh.Sh.Olimov va boshqalarning “Malakaviy amaliyot” nomli metodik ko‘llanmasida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimida talabalarning ta‘lim muassasalari, tashkilot va korxonalarda o‘tkaziladigan malakaviy amaliyot alohida o‘rin tutadi. Mazkur metodik qo‘llanmada malakaviy amaliyotning maqsadi, vazifalari hamda mazmuniga qo‘yiladigan talablar tashkiliy-metodik nuqtai nazardan yoritib berilgan[4].

Z.Qodirovaning ishida metodologik blok kasbiy yo‘nalganlik, aksiologik, ijodiy faollik va kommunikativlik tamoyillariga asoslangan faoliyatli yondashuvni o‘z ichiga qamrab olgan va uning tarkibiy asoslari, funksiyalari, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bosqichlari hamda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda malakaviy pedagogik amaliyotni tashqil qilish texnologiyasini yoritib bergan[5].

D.E.Qarshiyevaning “Uzluksiz malakaviy amaliyotni tashkil etish uchun metodik tavsiyalar” nomli maqolasida amaliyotchi-talabalar, universitet metodistlari, pedagogik amaliyot rahbarlari va fan o‘qituvchilari e‘tiboriga zamonaviy barcha turdagi dars-mashg‘ulotlari uchun asosiy metodlar, metodik ko‘rsatmalar pedagogik amaliyot jarayonida foydali bo‘ladi va talabalarga asosiy pedagogik kompetensiyalarni o‘zlashtirish va oshirishda yordam berishi takidlangan[6].

M.M. Parpievaning “Bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchisining autopedagogik kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari” nomli maqolasida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari respublikamiz olimlari tomonidan o‘rganilganligi, bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchisining autopedagogik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish, kelgusida uning pedagogik faoliyatda texnologiya fanini o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishda va yoshlarni kasbga yo‘naltirish samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi haqida bayon etilgan[7].

L.R.Zaripovning “Innovatsion yondashuv asosida 5-7-sinf o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi” deb nomlangan dissertatsiyasida o‘quvchilar texnologik kompetensiyalarining asosiy komponentlari (bilish, grafik, amaliy, ijodiy) o‘quv-texnologik faoliyat turlari (psixomotorik, funksional, amaliy) vainterfaol ta‘lim texnologiyalari (STEAM, “SMART texnology”) darajalariga mos kompetensiyalar tizimi asosida takomillashtirilgan [7,3].

Ye.M.Tretyakovaning “Pedagogicheskaya praktika” nomli o‘quv qo‘llanmasida universitetda pedagogik amaliyotni tashkil etish va har xil turdagi

darzlarni o'tkazish bo'yicha umumiy ma'lumotlar va tavsiyalar berilgan, maqsad va vazifalar ko'rsatilgan, pedagogik amaliyot, amaliyotning mazmuni va tashkil etilishi; hisobot tartibi, talabani individual rejasi va amaliyot hisoboti shakllari haqida fikrlar bayon etilgan.[8]

Bakova K.J., Fursova T.A., Znamenskaya N.A., Grechko Ye.M. O'quv amaliyoti uchun ko'rsatmasida pedagogik amaliyot nazariy va amaliy xarakteri, amaliyotning o'ziga xos xususiyati, pedagogik amaliyot o'qituvchining o'qitish texnikas, o'qitish amaliyatini o'qitishni talaba amaliyorlarning baholash standartlari haqida fikrlar bayon etilgan.[9]

Azimova Sh.G., M.X. Saydullayevalarning "Malakaviy amaliyotni o'tkazishga innovatsion yondashuv" nomli maqolasida kasbiy ta'limda o'tkaziladigan ishlab chiqarish amaliyotining nazariy va uslubiy asoslari va mavjud muammolar yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish amaliyotini modulli texnologiyaga asoslangan innovatsion yondashuv asosida tashkil etish va o'tkazish hamda amaliyot natijalarini Keys-stadi texnologiyasi asosida tekshirish va baholash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.[10]

D. Mo'minova tomonidan raqamlashtirish muhitida bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarining kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishda o'quv va pedagogik amaliyotlarning ahamiyati asoslab berilgan.[11]

Sodiqova A.H. Bo'lajak o'qituvchilarning tikuvchilik buyumlarini loyihalashga oid maxcuc kompetensiyalarini pivojlantirish metodikasini takomillashtirish orqali tikuvchilik buyumlarini loyihalash japyonida bo'lajak o'qituvchilarning maxcuc kompetensiyalarini pivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlari hamda didaktik tamoyillar asosida faoliyatli modeli ilmiy-metodik jihatdan mazmuni ishlab chiqilgan [12].

Allamuradov Anvar Abdirasulovichning "Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish" bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. [13]

Kutlimuradov Karamaddin Allabayevichning "Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish texnologiyalari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. [14]

Haydarov Ramozon Mamayusupovichning "Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi" bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. [15]

To'lqinova Xolida To'lqunovna "Innovatsion yondashuv asosida o'qituvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. [16]



Matyaqubov Kamaladin Kuranbayevichning “Umumta’lim maktablarida texnologik ta’limni tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish metodikasi” bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. [17]

O’tkazilgan taxlillar shuni ko’rsatdiki, texnologik ta’lim” yo’nalishida olib borilgan tadqiqotlar aksariyati amaliyotni o’tash vaqti tuzilmasi va mazmuniga qo’yiladigan talablarni ishlab chiqishga qaratilgan. Ammo amaliyotlarni o’tash vaqtida zamonaviy yondashuvlarga asoslangan amaliyotlarni tashkil etish va amalga oshirish jihatlari yetarlicha o’rganilmagan.

Shuningdek amaliyotni o’tash davrida talabada shakllanadigan ko’nikma va malaka darajalarini baholashning zamonaviy usullaridan foydalanish ga kam e’tibor qaratilgan.. Auditoriyada egallangan bilim va ko’nikmaning qay darajada malakaga aylanishi kuzatilishi va chuqur tahlil qilib borilishi muhim hisoblanadi.

Bo’lajak “Texnologiya” fani o’qituvchilarining kasbiy mahoratni shakllantirish va uni yanada rivojlantirishda pedagogik amaliyotini o’tkazish muhim hisoblanadi hamda amaliyot davrida bo’lg’usi mutaxassis o’z kasbini amaliy jihatdan chuqur egallashi uchun imkoniyat yaratiladi. Bunda o’qituvchilar bilan doimiy muloqotda bo’lish, tajribali o’qituvchilar va amaliyotchi-talabalarning ish tajribalarini kuzatish jarayonida ularda kelgusi kasbiy faoliyati davrida zarur bo’ladigan sabr-toqat, odob va xushmuomalalik, atrofda qilargalarga e’tibor, jamoa bilan ishlash, ustoz va shogirdning o’zaro munosabatlari, tanlagan kasbining jamiyatda tutgan o’rni va uning mohiyatini to’la tushunib yetish kabi sifatlar shakllanadi. Bular kelgusida amaliyotchi-talabaning o’z ishining mohir ustasi bo’lib yetishishiga asos bo’lib xizmat qiladi.

Ta’lim muassasalarida o’tkaziladigan amaliyot bo’lajak “Texnologiya” fani o’qituvchilarining oliy o’quv yurtida egallagan bilim, ko’nikma va malakalari uchun sinov vazifasini ham bajaradi. Negaki, amaliyotchi-talabaga o’z kasbiy yo’nalishi bo’yicha mashg’ulotlarga tayyorlanish, uni o’tkazish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o’tkazish davrida egallagan bilimlari doirasi qanday darajada ekanligi namoyon bo’ladi. Natijada amaliyot jarayonida kasbiy ko’nikmalar to’la shakllanish imkoniyatlari ro’yobga chiqadi. Shunga ko’ra pedagogik amaliyotni o’tkazish bugungi kunda yuksak va samarali ta’lim jarayonini tashkil etib, malakali raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash davlat oldidagi asosiy masala hisoblanadi. Oliy o’quv yurtlari talabalarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda malakaviy pedagogik amaliyot muhim o’rin egallaydi. Malakaviy pedagogik amaliyot ta’lim turlari uchun yuqori malakali



pedagog kadrlar tayyorlash ishining ajralmas qismi bo‘lib, talabalarning kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi pedagogik jarayondir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy mahoratni shakllantirish va uni yanada rivojlantirishda pedagogik amaliyotini o‘tkazish muhim hisoblanadi hamda amaliyot davrida bo‘lajak o‘qituvchida o‘z kasbini amaliy jihatdan chuqur egallashi uchun imkoniyat yaratiladi. Bunda o‘quvchilar bilan doimiy muloqotda bo‘lish, tajribali o‘qituvchilar va amaliyotchi-talabalarning ish tajribalarini kuzatish jarayonida ularda kelgusi kasbiy faoliyati davrida zarur bo‘ladigan sabr-toqat, odob va xushmuomalalik, atrof-dagilarga e‘tibor, jamoa bilan ishlash, ustoz va shogirdning o‘zaro munosabatlari, tanlagan kasbining jamiyatda tutgan o‘rni va uning mohiyatini to‘la tushunib etish kabi sifatlar shakllanadi. Bular kelgusida amaliyotchi-talabaning o‘z ishining mohir ustasi bo‘lib yetishishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta‘lim muassasalarida o‘tkaziladigan amaliyot “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining oliy o‘quv yurtida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari uchun sinov vazifasini ham bajaradi. Negaki, amaliyotchi-talabaga o‘z kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorlanish, uni o‘tkazish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o‘tkazish davrida egallagan bilimlari doirasi qanday darajada ekanligi namoyon bo‘ladi. Kelgusida nimalarga ko‘proq e‘tibor berish va o‘rganish kerakligini anglab yetadi. Natijada amaliyot jarayonida kasbiy ko‘nikmalar to‘la shakllanish imkoniyatlari ro‘yobga chiqadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz tomondan “Texnologik ta‘lim” yo‘nalishlari pedagogik amaliyotlarni sifatini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borish tavsiya qilindi:

- pedagogik amaliyotlarni modifikatsion yondashuv asosida takomillashtirish, bunda amaliyot dasturiga, o‘tkazish metodikasi va baholash jarayoniga o‘zgartirishlar kiritish;
- amaliyot dasturini va metodikasini ishlab chiqishda asosiy e‘tiborni talabani mustaqil izlanishiga, mustaqil harakat qilishiga yo‘naltirilishili lozim;
- pedagogik amaliyotni o‘tkazish jarayonida talabaga muammoli va keys stadi topshiriqlarini va kichik loyihalarni bajartirish orqali ulardagi mavjud bilim va ko‘nikmaning kasbiy malakaga aylanishiga erishish;
- pedagogik amaliyotni tashkil etish va o‘tkazishda raqamli texnologiyalardan va resurlardan samarali foydalanish;



- pedagogik amaliyot natijasida talabada shakllantirilgan kasbiy ko‘nikmani baholashning zamonaviy metodlari va mezonlaridan samarali foydalanish.

Agar yuqoridagi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilsa va amalda joriy etilsa pedagogik amaliyotlarni o‘tkazish jarayoni yanada takomillashtirishga va buning natijasida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarida kasbiy bilim, ko‘nikma va malaka yetarli darajada shakllantirilgan bo‘lar edi.

Adabiyotlar:

1. Tolipov O., Sharipov Sh., Xolmatov P. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni kacb-hunarga yo‘naltirish // Maktab va hayot. – Toshkent, 2004. –№ 2. – B. 17-35.
2. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta‘minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss.–T., 2012.–264 b.
3. M.Barakayev, A.Jalilov, Q.Jumaniyozov, B.Xo‘Jayev, I.Rahmonov. Malakaviy amaliyot: uslubiy qo‘llanma / -Toshkent: «Turon-Iqbol», 2015.-152 b.
4. Sh.Sh.Olimov, B.T. Juraev. Malakaviy amaliyot. Metodik ko‘llanma. Buxoro, 2021. - 41 b.
5. Z.Qodirova. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil qilish texnologiyasi. "Science and Education" Scientific Journal. June 2021 / Volume 2 Issue.
6. D.E.Qarshieva. Uzluksiz malakaviy amaliyotni tashkil etish uchun metodik tavsiyalar. Academic research in educational sciences. Scientific journal impact factor (sjif) 2020.
7. Parpieva M.M. Bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchisining autopedagogik kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Education and innovative research 2021 y.
8. Е.М.Третьякова. Педагогическая практика. Учебно-методическое пособие. Толятти Издательство ТГУ. 2013.
9. Bakova K.J., Fursova T.A., Znamenskaya N.A., Grechko Ye.M., Metodicheskie ukazaniya o pedagogicheskoy praktike. Bishkek, 2013. 120-b
10. Azimova Sh.G., Saydullaeva M.X. Malakaviy amaliyotni o‘tkazishga innovatsion yondashuv. Zamonaviy ta‘lim / Современное образование 2020, 9 (94).
11. Mo‘minova Dilnavoz Komilovna “Raqqamlashtirish ta‘lim muhitida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish/ diss. Buxoro-2023. 78-b
12. Sodiqova A.H. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tikuvchilik buyumlarini loyihalashga oid maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disya. Buxoro-2022.8-10 b.
13. Allamuradov Anvar Abdirasulovichning “Bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. Termiz-2023.25-27 b.
14. Kutlimuradov Karamaddin Allabayevichning “Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish texnologiyalari”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disya. Nukus-2023.32-33 b.
14. Haydarov Ramozon Mamayusupovichning “Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disya. Termiz-2023. 26-28 b.
15. To‘lqinova Xolida To‘lqunovna “Innovatsion yondashuv asosida o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disya. Toshkent-2023. Avtoreferat 11-13 b.
16. Matyaqubov Kamaladin Kuranbayevichning “Umumta‘lim maktablarida texnologik ta‘limni tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish metodikasi”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disya. Toshkent-2023. 33-34 b.



17. Sayfullaeva D. et al. Improving the quality of education in higher educational institutions with the using innovative educational technologies //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – Т. 2647. – №. 1.

18. Sayfullayeva D. A. et al. Levels of activation the activities of students //EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management. – 2020. – С. 28-31.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta’lim jarayonining takomillashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqot va metodik ishlar tahlil, oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy malakani shakllantirishda pedagogik amaliyotning o‘rni, ahamiyati va takomillashtirish yo‘nalishlari, “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy mahoratni shakllantirishda pedagogik amaliyotini o‘tkazish muhimligi haqida fikrlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье проводится подготовка учителей специальности «Технология» к профессиональной деятельности, анализ научно-исследовательских и методических работ по проблемам совершенствования образовательного процесса, роль, значение и совершенствование педагогической практики в формировании профессиональных навыков педагогов, студенты высших учебных заведений, направления, мнения о значении проведения педагогической практики в формировании профессиональных навыков преподавателей специальности «Технология».

SUMMARY

In this article, the preparation of "Technology" teachers for professional activities, the analysis of scientific research and methodical works on the problems of improving the educational process, the role, importance and improvement of pedagogical practice in the formation of professional skills of students of higher educational institutions. directions, opinions about the importance of conducting pedagogical practice in the formation of professional skills of "Technology" teachers.